



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING
YANVAR-IYUL
OYLARIDA



Dastlabki ma'lumotlar

	2021- y. yanvar-iyul	2022- y. yanvar-iyul
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm	10 024,7	12 278,5
Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da	119,3	113,8
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm	2 528,2	3 031,5
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmalarning o'sish sur'atlari, % da	117,1	111,4

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 253,8** mlrd. so'mga oshib, **12 278,5** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-iyul oylariga (**119,3 %**) nisbatan o'sish sur'ati **113,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi

bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Xizmatlar

iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2022- yil yanvar-iyul oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	12 278,5	113,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	582,4	122,8
Moliyaviy xizmatlar	2 058,4	138,4
Transport xizmatlari	2 902,2	108,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 727,1	107,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	421,7	106,9
Savdo xizmatlari	3 397,5	108,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	306,3	112,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	580,4	99,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	262,1	119,9
Ijara xizmatlari	369,8	115,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	365,5	108,8
Shaxsiy xizmatlar	543,5	111,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	191,3	99,9
Boshqa xizmatlar	297,4	125,2

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (**27,7 %**), transport xizmatlari (**23,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,8 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (**4,8 %**) qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,6 %** ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Savdo
xizmatlari –
27,7

Transport
xizmatlari –
23,6

Moliyaviy
xizmatlar –
16,8

Boshqa
xizmatlar –
14,9

Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari –
4,8

Ta'lim
sohasidagi
xizmatlar –
4,7

Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari –
3,4

Ko'chmas mulk
bilan bog'liq
xizmatlar –
2,5

Me'morchilik
sohasidagi
xizmatlar –
1,6

2022- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar sohasida yuqori o'sishga erishildi (**16,8 %**). 2021- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan solishtirganda farq **18,3** punktni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul va 2021- yillari uchun aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari o'rtasidagi maksimal ijobiy tafovut **7,5** punkt darajasida qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Savdo xizmatlari
(yanvar-iyul oylarida)**

**O'sish
sur'ati, % da**

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Transport
xizmatlari**
(yanvar-iyul oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Avtomobil transporti
xizmatlari**
(yanvar-iyul oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*

2022- y. 107,8

2021- y. 115,1

2 727,1

2 385,2

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Moliyaviy
xizmatlar**
(yanvar-iyul oylarida)

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*

*O'sish
sur'ati, % da*



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.





*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari**
(yanvar-iyul oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.





*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Ta'lim sohasidagi
xizmatlar
(yanvar-iyul oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



2022- yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **580,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyulga nisbatan o'sish sur'ati **99,0** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyulda xizmatlar hajmi **533,1** mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **61,7** % ga o'sish qayd etilgan.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

**Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
(yanvar-iyul oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.




Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida

Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar
(yanvar-iyul oylarida)

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

O'sish
sur'ati, % da



2022- yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **262,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyuliga nisbatan o'sish sur'ati **119,9** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmatlar hajmi **196,9** mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etgan.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Samarqand viloyati	12 278,5	113,8	119,3
Samarqand shahri	5 341,9	118,1	123,8
Kattaqo'rg'on shahri	277,0	110,3	116,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	423,7	109,9	116,7
Bulung'ur	326,9	110,1	116,5
Jomboy	491,7	109,9	115,8
Ishtixon	433,8	110,4	114,4
Kattaqo'rg'on	478,2	109,8	114,5
Qo'shrabot	239,8	109,6	114,1
Narpay	403,2	110,2	115,3
Payariq	430,0	110,5	115,0
Pastdarg'om	741,9	110,1	114,7
Paxtachi	268,4	110,0	114,0
Samarqand	821,6	112,3	116,0
Nurobod	242,8	110,1	113,8
Urgut	830,3	112,1	116,9
Toyloq	527,3	110,8	125,1

*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-iyul oylarida*

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy
ko'rsatkichlari
(yanvar-iyul oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 031,5** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,4** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha Samarqand shahrida **9 463,0** ming so'mdan Nurobod tumanida **1 548,9** ming so'mgachani tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 66-230-45-34